

QISHLOQ XO‘JALIGI FAOLIYATINING ASOSIY KONTSEPTLARI TERMINOLOGIK IFODALANISHI XUSUSIDA

Maxmudova Dilafruz Alijonovna

Qo‘qon davlat universiteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

dilafruzmaxmudova137@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilidagi qishloq xo‘jaligi faoliyatining asosiy kontseptlari terminologik ifodalanishi xususida fikrlar keltirilgani bilan qimmatlidir. Shuningdek qishloq xo‘jaligi terminlarining semantik xususiyatlari, ularning o‘xshatish hosil qilishdagi lingvopoetik imkoniyatlari hamda o‘zbek adabiyotidagi namunalari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi terminlari, kontseptlar, o‘xshatish, metafora, lingvopoetika, badiiy nutq, obrazlilik, semantika.

Jahon tilshunosligida XX asr oxiri XXI asr boshlarida tilni faqat o‘z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanuvchi yopiq tizim sifatida emas, balki inson omili, uning tafakkuri, madaniyati va bilish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida o‘rganuvchi antropotsentrik paradigmaning yuksalishi bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik va psixolingvistika kabi yo‘nalishlarning rivoji til birliklari ortida butun bir millatning dunyoqarashi, qadriyatlari va ruhiyati mujassam ekanini tadqiq etishni kun tartibiga qo‘ydi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishlarning shakllanishi va rivoji bir necha ilmiy maktablar va yetakchi olimlar nomi bilan bog‘liq. Xususan, til birliklarining milliy-madaniy semantikasini tadqiq qilishda professor Nizomiddin Mahmudov asos solgan lingvokulturologiya maktabining o‘rni beqiyosdir. Olimning ishlarida tilning mukammal tadqiqi uning madaniy qatlamlarini ochish orqali amalga oshirilishi g‘oyasi ilgari surildi⁵. Shu bilan birga, professor Abdulhamid Nurmonovning til tizimi, ma’no va uning turlariga oid fundamental qarashlari so‘zning lug‘aviy ma’nosidan tashqari uning assotsiativ-madaniy qatlamlarini o‘rganish uchun mustahkam nazariy zamin yaratdi⁶.

Tilga insonning bilish jarayonlari va muloqot vaziyatlari orqali yondashuvchi maktablar ham assotsiativ maydon tadqiqi uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Bu o‘rinda Samarqand pragmalogik maktabining asoschisi, professor Shahriyor Safarovning tadqiqotlarini alohida qayd etish lozim. Uning ishlarida til birligining ma’nosi muloqot vaziyati, so‘zlovchi intensiyasi va tinglovchi tafakkuri bilan bog‘liqlikda o‘rganilishi assotsiatsiyalarning hosil bo‘lish mexanizmini tushunishga yordam beradi⁷. Toshkent kognitiv tilshunoslik maktabining yetakchisi, professor Baxtiyor Mengliyev va uning shogirdlari esa

⁵ Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқини таъминлаш йўллари. – Тошкент: Фан, 2007.

⁶ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012.

⁷ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Самарқанд: СамДИЧЛ наشري, 2008.

tildagi konseptlar, metaforalar va prototiplarni tadqiq qilish orqali mavhum tushunchalarning o‘zbek kishisi ongida qanday obrazlar va bog‘lanishlar orqali shakllanishini o‘rgandilar⁸.

O‘zbek tilshunosligida assotsiativ maydon tadqiqining nazariy-metodologik asoslarini yaratgan ilmiy maktablar va ularning namoyandalari

Olim (Maktab)	Ilmiy yo‘nalishi	Asosiy hissasi
Nizomiddin Mahmudov	Lingvokulturologiya, etnolingvistika	Tilda millat ruhiyati, madaniyati va qadriyatlari aks etishi nazariyasini yaratgan.
Abdulhamid Nurmonov	Sistemaviy tilshunoslik, semantika	Tilning ichki tizimi va ma’no qatlamlarini tahlil qilish uchun nazariy asos yaratgan.
Shahriyor Safarov	Diskurs tilshunoslik	Pragmalingvistikaning sohalari etnopragsmatika, sotsiopragsmatika, qiyosiy pragsmatika va boshqa qator ilmiy yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati ochib bergan.
Baxtiyor Mengliyev	O‘zbek amaliy tilshunosligi	O‘zbek tilidagi yangi grammatik kategoriyalarni ochdi va fe’ning funksional shakllari deb atalgan tizim hamda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarining kategorial xususiyatlarini aniqladi
Durdona Lutfullayeva	Assotsiativ lingvistika	Assotsiativ tilshunoslik nazariyasini tadqiq qilgan
Zilola Sultonova	Lingvokulturologiya	"Oila" konseptining o‘zbek tilidagi milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilgan.

Yuqorida zikr etilgan nazariy poydevor va ilmiy maktablarning g‘oyalari o‘zbek tilidagi muayyan konseptual maydonlarni psixolingvistik va lingvo-kulturologik jihatdan tahlil qilishga keng yo‘l ochdi. Bu borada, ayniqsa, “assotsiativ maydon” nazariyasi va uning o‘zbek tilshunosligida qo‘llanilishi haqida so‘z ketganda, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dilnoza Jo‘rayevaning tadqiqotlarini alohida tilga olish zarur. Uning ilmiy ishlari, jumladan, dehqonchilik leksikasining assotsiativ-verbal maydoni tahliliga bag‘ishlangan dissertatsiyasi va monografiyasi bu sohadagi eng fundamental va keng qamrovli tadqiqotlardan biri hisoblanadi⁹. D.Jo‘rayeva tomonidan ishlab chiqilgan metodikaga tayangan holda, o‘zbek tilidagi “dehqonchilik” konseptining assotsiativ maydonini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Qishloq xo‘jaligi faoliyati – bu inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab, ko‘p asrlik munosabatlar tizimidir. Bu jarayon o‘zida chuqur bilim, tajriba va madaniyatni aks ettiradi. O‘zbek tilida bu faoliyat bilan bog‘liq terminlar shunchaki nom emas, balki o‘zida butun boshli konseptlarni, ya’ni muayyan tushuncha, tasavvur va bilimlar majmuasini mujassam etgan lisoniy birliklardir.

Sh.Safarovning qayd etishicha, “konsept va tushuncha tafakkur birligi, borliq alohidaliklari va munosabatlaridagi umumiy va muhim tomonlarning ongda in’ikosi bo‘lgan

⁸ Менглиев Б. Тилнинг когнитив аспекти. – Тошкент: Фан, 2011.

⁹ Жўраева Д. Ўзбек тилидаги деҳқончилик лексикасининг ассоциатив-вербал майдони: Филол. фан. б. фал. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017.

holda baholash, unga kimningdir munosabati qo‘shimcha (yondosh, hamroh) ma’nolari xos emas; u baho ma’nosidan xolidir¹⁰”.

Konsept ham, tushuncha ham tafakkur birligi ekanligiga ko‘ra umumiylik xususiyatiga ega bo‘lsa-da, inson tasavvurlari va bilimlarini umumlashtirish darajasiga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi tushunchalardir. Ma’lumki, “*konsept* termini aslida “*tushuncha*” ma’nosini anglatuvchi lotin tilidagi *conceptus* so‘zidan olingan. Shu bois ko‘pchilik tilshunoslar uzoq yillar davomida bu termin o‘rnida uning muqobili sifatida *tushuncha* leksemasini qo‘llab kelishdi. Ammo bugungi kunda *konsept* va *tushuncha* terminlari bir-biridan farqlanadi¹¹”.

Konseptning tadqiqot doirasi uning milliy o‘ziga xosligi sababli faqatgina kognitiv fanlar bilan cheklanib qolmaydi, aksincha, lingvomadaniyatshunoslik sohasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Professor N.Mahmudovning fikrlari buni yaqqol dalillaydi¹². Unga ko‘ra, lingvomadaniy tadqiqotlarning diqqat markazida aynan konseptlar va ularning tildagi ifodasi turibdi. Olim bu tendensiyaning, xususan, Rossiya tilshunosligida misli ko‘rilmagan darajada ommalashganini, bu mavzudagi ilmiy ishlarning hisobiga yetish qiyinligini ta’kidlaydi. Zamonaviy dissertatsion tadqiqotlarning asosiy vektori aynan konseptlarning lingvomadaniy tahliliga yo‘naltirilgani ham ushbu yo‘nalishning naqadar fundamental va istiqbolli ekanidan dalolat beradi.

Sh.Usmonovanning qarashlariga ko‘ra, konseptning lingvomadaniy talqini uni jamoaviy tafakkurning etnomadaniy belgilar bilan ajralib turuvchi va tilda ifodalanuvchi birligi sifatida tushunishni taqozo etadi¹³. Boshqacha aytganda, konsept bir vaqtning o‘zida ham ong (mentallik), ham til (lisoniy ifoda), ham madaniyat (etnomadaniy o‘ziga xoslik) hodisalarini birlashtiruvchi sintetik kategoriyadir. Aynan mana shu sintetik tabiati uni lingvomadaniyatshunoslikning markaziy tushunchasiga aylantiradi va u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xosligini aks ettirishga xizmat qiladi. Konseptga xos bo‘lgan milliylik esa uning lisoniy voqelanishida, ya’ni muayyan soha leksikasi va terminologiyasida kuzatiladi.

Sir emaski, o‘zbek xalqining xo‘jalik va madaniyatida dehqonchilik, xususan, paxtachilik o‘ta muhim o‘rin tutadi. Bu sohaga xos terminlar tizimi shunchaki ilmiy-texnik atamalar majmui emas, balki asrlar davomida shakllangan milliy tafakkurning lisoniy in’ikosidir. Buning isbotini paxtaning “*Andijon-35*”, “*Buxoro-6*”, “*Namangan-77*” kabi o‘nlab mahalliy navlari va ularga berilgan nomlarda ko‘rish mumkin.

Ko‘rinadiki, bu qishloq xo‘jaligi terminlarida nafaqat navning o‘ziga xosligi, balki yaqqol hududiy mansubligi ham aks etgan. Aynan shunday nominativ birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Sohaviy konseptlarning lisoniy obyektivlashuvini tadqiq etish, etnolingvistika va lingvokulturologiya fanlari uchun keng istiqbolga ega ilmiy yo‘nalishdir, chunki bu jarayon muayyan bir etnosning olam manzarasi tilda qanday aks etishini o‘rganishning eng samarali usullaridan biridir.

¹⁰ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 2.

¹¹ Бу ҳақда қаранг: Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – М., 2001. – № 1. – С. 35-47.

¹² Маҳмудов Н. Тилининг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

¹³ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – Б. 204.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hojiyev A. O‘zbek tili terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2011.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2002.
5. Makhmudova D.A. National-Cultural Semantics Of Agricultural Terms In Artistic Works // Educator Insights: A Journal of Teaching Theory and Practice, Volume-01/Issue 06, June, 2025. – Pp. 183-188. (ISSN:3061-6964, №12, Impact factor:10,36)
6. Makhmudova D.A. Places Of Use And Classification Of Agricultural Terms In Artistic Text // EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, Volume 01/Issue 06, June, 2025. – Pp. 178-183. (ISSN:3061-6972, №11, Impact factor:10,22)
7. Maxmudova D.A. Badiiy matnda qishloq xo‘jaligi terminlarining aks ettirilishi // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2023, 3-son. – B. 424-428. (10.00.00. – №26).
8. Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlari badiiy adabiyotda sayqallanishi // @Til va adabiyot.uz. – Toshkent, 2024. – №20/1. – B. 105-107. (OAK Rayosatining 2023 - yil 3-iyundagi 338/6-son qarori)
9. Makhmudova D.A. Agricultural Terms // Conference On Scientific Research And Problems Of Society, January 10, 2023. – Pp. 85-88.
10. Maxmudova D.A. Badiiy matnda qishloq xo‘jaligi terminlaridan foydalanish matn ta’sirchanligini oshiruvchi omil sifatida // “Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi” III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Jizzax, 2023-yil 4-may. – B. 143-145.
11. Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlarining badiiylashuvi // Filologiyaning dolzarb masalalari (Professor Odiljon Bozorov tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlanadi). – Qo‘qon, 2023. – B. 250-252.
12. Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlari lingvopoetikasi // “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va neyropsixolingvistika muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona: FarDU, 2024. – B. 302-304.